

**Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini 2024-yil birinchi
yarim yilligida baholash natijalari bo'yicha
JAMLANMA MA'LUMOT**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 377-sonli "Vazirlik va idoralarning ichki audit xizmatlari faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq, joriy yilning birinchi yarmida xavf tahlili asosida tanlab olingan **6 ta** vazirlikning **ichki audit xizmatlari faoliyati baholandi**.

I. Baholash **ichki audit faoliyatini** tegishli **normativ hujjatlar asosida tashkil etilishi, xavf tahlili tizimini yo'lga qo'yilishi, audit natijasida ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarning (chora-tadbirlar) ijro etilishi, xodimlarning malaka darajasini qamrab olgan 7 ta yo'nalishdagi namunaviy savolnomaga ball berish orqali amalga oshirildi.**

Ma'lumot uchun: Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan tartibga muvofiq, baholash savolnoma to'ldirish orqali berilgan jami ballning maksimal (84 ball) ballga nisbatini foizda ifodalash orqali amalga oshirildi.

*To'ldirilgan savolnoma natijalariga ko'ra, maksimal ballning **90 va undan ko'p foizini** tashkil etgan vazirliklar ichki audit xizmati faoliyatining sifat darajasi "yuqori", 70 - 90 foiz oralig'ida bo'lganda "o'rta", 70 foizdan kam bo'lganda "past" deb baholanadi.*

Baholash natijalariga asosan, Suv xo'jaligi vazirligi va Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirliklari ichki audit tuzilmalari faoliyatining sifat darajasi "past" hamda Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Sport vazirligi, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari ichki audit tuzilmalari faoliyatining sifat darajasi "o'rta" darajada baholandi (*baholash o'tkazilgan vazirliklarning umumiy ma'lumotlari ilova qilinadi*).

II. Baholash natijalariga ko'ra, o'rganilgan 6 ta vazirlikda quyidagi yo'nalishlarda **kamchiliklar mavjudligi aniqlandi**:

- ichki audit xizmati xodimlari malakasining malaka talablariga muvofiqligi;
- ichki audit tadbirlari natijalari asosida chora-tadbirlar (taklif va tavsiyalar) rejasining sifatli ishlab chiqilishi va uni ijrosi ta'minlanishi hamda monitoring qilinishi;
- ichki audit yillik rejasini tuzishda xavf tahlili tizimining sifatli amalga oshirilishi;

- ichki audit tadbirlarini amalga oshirishda ichki audit tadbiri dasturi ishlab chiqilishi, hisobot belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi hamda unda takliflar ishlab chiqilishi;

- ichki audit nizomi va lavozim yo'riqnomalarining amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilishi hamda tegishli o'zgartirishlarni o'z vaqtida amalga oshirilishi.

Baholash natijalari asosida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha **chora-tadbirlar rejalari ishlab chiqilib**, baholash o'tkazilgan vazirliklarning **vazirlari tomonidan tasdiqlandi**.

III. Baholash natijalari yuzasidan ichki audit tuzilmalari faoliyatida yo'l qo'yilgan kamchiliklar, tizimli muammolarni bartaraf etish, shuningdek, ichki audit tuzilmalarining faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

ichki audit tuzilmasi faoliyatini amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq tashkil etish;

ichki audit yillik rejasini xavf tahlili asosida ishlab chiqishda tashkilotlar qamrovini kengaytirish va xavf tahlilini yanada takomillashtirish;

ichki audit tadbirlarini belgilangan tartibda o'tkazish va natijalarini rasmiylashtirish;

chora-tadbirlar rejasining ijrosini to'liq ta'minlash hamda monitoringini yuritish;

ichki audit tadbirlarini o'tkazishda asosiy e'tiborni budjet qonunchiligining buzilishi holatlarini oldini olishga (profilaktikaga) qaratish;

masofaviy nazorat mexanizmlaridan keng foydalanish va uni rivojlantirish;


vazirlikda ichki audit faoliyatini amalga oshirish uchun ichki audit xizmati xodimlarining yetarligini ko'rib chiqish;

xodimlarning malakasini doimiy oshirib borish, shuningdek, ichki audit tuzilmasida mavjud vakant lavozimlarni malakali kadrlar bilan to'ldirish hamda ichki audit xizmati uchun kadrlar zaxirasini yaratish;


ichki auditning xalqaro ilg'or tajribalarini doimiy o'rganib borish.

Baholash o'tkazilgan vazirliklarning umumiy ma'lumotlari


Suv xo'jaligi vazirligi ichki audit tuzilmasi faoliyatini baholash natijalari




Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi ichki audit tuzilmasi faoliyatini baholash natijalari




Qishloq xo'jaligi vazirligi ichki audit tuzilmasi faoliyatini baholash natijalari



Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ichki audit tuzilmasi faoliyatini baholash natijalari



Sport vazirligi ichki audit tuzilmasi faoliyatini baholash natijalari



Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ichki audit tuzilmasi faoliyatini baholash natijalari

